



QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH UCHUN INNOVATSION G'OYALAR

Yuldasheva Rayxona

*Toshkent shahar Olmazor tumanidagi Abu Ali ibn Sino nomidagi
ixtisoslashtirilgan maktabning 9"V"-sinf o'quvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash uchun innovatsion g'oyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: qattiq maishiy chiqindi, g'oyalar, ekologik masala, insoniyat, yashash tarzi, atrof muhit.

Dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlab chiqarishni rivojlantirish xalqimizning birinchi darjali ahamiyatga ega bo'lgan sanoatni, aholini turmush farovonligini, mustaqil davlatimizning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga va hayotimizni kundan kunga o'sishiga olib keladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda respublikamiz hududlarida to'plangan 7 million tonna qattiq maishiy chiqindilarning 1,8 million tonnasi qayta ishlangan bo'lib, bu ko'rsatkich 26 foizga yetkazilgan. O'tgan yilda 6,8 million tonna qattiq maishiy chiqindilarning 2,2 million tonnasi yoki 32,4 foizi qayta ishlanib, qolgan 4,6 million tonna qattiq maishiy chiqindilar poligonlarga joylashtirilgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda bir inson bir yilga o'zidan 1.5 tonna chiqindi chiqaradi. Bu ko'rsatkich ko'proq shahar va qishloqlarda yashovchi fuqarolar hissasiga to'g'ri keladi.

Kuzatishlarga ko'ra, shisha idish – million yil, plastik ichimliklar idishlari – 450 yil, alyuminiy konserva – 80-200 yil, kuchlanish batareyalari – 100 yil, kauchukli etik – 50-80 yil, plastik stakan, teri, qalay konserva – 50 yil, neylon mato – 30-40 yil, charm poyabzal – 25-40 yil mobaynida chirib, yo'q bo'lib ketadi. Polietilen peketlari 100 yilda, temir bankalar 500 yilda erib yo'q bo'lishini hisobga olsak, chiqindini saralab qayta ishlash atrof-muhitni tozaligi uchun shart va zarur.

Davlatimiz shiddat bilan rivojlanib bormoqda, aholi soni ortmoqda va bugungi kunda chiqindilarning mingga yaqin turi qayd etilib, ular soni kelgusida yana ham ortishi bashorat qilinyapti. Rivojlangan mamlakatlarda chiqindilarni yoqish va ulardan muqobil energiya manbalari olish usuli keng yo'lga qo'yilgan. Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya davlatlarida chiqindilarni yoqish



va ulardan muqobil energiya olish bo'yicha yashil tariflar ishlab chiqilgan. Bu holatdan anglash mumkinki, yerga tashlangan har qanday chiqit atmosferaga, atrof muhitga, yer, suvimizga va albatda sog'lig'imizga jiddiy zarar yetkazishini hayotimizning o'zi ko'rsatmoqda.

Maishiy chiqindilar sohasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekiston Ekologik partiyasi dasturiy maqsadlaridan o'rin olgan:

- chiqindilarni qayta ishlash hajmini 60 foizga, hosil bo'layotgan sanoat chiqindilarini qayta ishlash miqdorini esa 40 foizga yetkazish;
- sanoat va maishiy chiqindilarni boshqarish sohasiga davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini, bozor boshqaruvi tizimini rag'batlantirishga yo'naltirilgan huquqiy mexanizmini takomillashtirish;
- saqlash va ko'mib tashlash maqsadida mamlakat hududiga chiqindilarni, shu jumladan chetdan xavfli chiqindilarning har qanday turlarini olib kirishni taqiqlash;
- chiqindilardan energiya manbai sifatida foydalanish texnologiyalarini keng joriy etish.

Aholi chiqindilarini saralab tozalash uchun maxsus Multiliftlar ishlab chiqish kerak. Bu usul chiqindini tashish uchun ketadigan vaqtni va yoqilg'ini tejaydi. Shuningdek kasallik tashuvchi zararkunandalarni ko'payishining oldini oladi.

Chiqindini qayta ishlash muhim jaryon. Masalan; 1 tonna qog'ozning qayta ishlanishi natijasida 700 ta daraxt saqlanib qoladi. Plastmassa va bakalashkalarining o'zidan 200 xil mahsulot tayyorlash mumkin. Plastik chiqindilar bilan ifloslanish odatda "Oq ifloslanish" deyiladi. Plastik chiqindilar dengizdagi suzuvchi moddalarning 60%ini tashkil etadi.

PLASTIKLARDAN YANGI MAHSULOT OLISH

Hozirgi kunda bu plastik ifloslanishni oldini olish uchun, shu mahsulotlardan insoniyatga foydasi tegadigan yangi mahsulot ishlab chiqish kerak. Yangi mahsulot ishlab chiqish jarayoni quyidagicha: 1) Avval chiqindilarni to'g'ri saralab olish zarur. 2) Saralab olingan chiqindilarni maydalab olish kerak. 3) So'ng yuqori haroratdagi pechlarda eritib olinadi. 4) Maxsus qoliqlar orqali erigan mahsulotlarga shakl beramiz. Bu jarayon orqali tabiatni million yilda chiriydigan chiqindilardan xalos etamiz va uy-ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqamiz.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanishi ko'p jihatdan ustuvor sohalarni, jumladan kimyo, biokimyo, gaz va neft- kimyo sanoati taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Qattiq chiqindilarni qayta ishlanishi uchun ularni ajratish, saralash barchaning vazifasidir. Maktabda, uyda, ish joylarida qayta ishlanadigan



chiqindilar uchun qutilar o'rnatish, chiqindilarni saralamagan kishilarga mavzuning ahamiyatini tushuntirib ularga to'g'ri yo'nalish berish bu mavzu bilan bog'liq oddiy yechim yo'llaridir. Bu borada jamiyatning boxabar qilinishi va mavzunung qisqa muddatda keng ommaga eshittirilishi maqsadida turli kompaniyalar tashkil etilishi kerak. Chiqindi sifatida baholab chiqindiga tashlangan materiallarimizni alohida-alohida qutilariga tashlasak, saralanishi va qayta ishlanishi yanada jadallashadi. Shu sababli avvalo o'zimiz shu shaklda axlatlarni saralashimiz, yaqin atrofimizga ham bu borada o'rnak bo'lib ularning ham chiqindi nazoratida e'tiborli bo'lishlariga hissa qo'shishimiz mumkin.

B

i

€

h B

à

¶

h

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

g 1

d 2. <https://ecouz.uz/news-page/view/71>

<https://kun.uz/uz/news/2021/01/30/chiqindilarni-qayta-ishlash>

M

à

fi

M

à

i

fi

a

b

Fi

h

o

Fi

k

b

b

k

i

h

n

i